
Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 57 556,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 9,6 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 106,9 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot





- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da*
	2025- yil	***2026- yil***	
I. YAHM, jami	**49 114,4**	**57 556,2**	**109,6**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	48 285,9	56 544,2	109,5
mahsulotlarga sof soliqlar	828,5	1 012,0	113,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**48 285,9**	**56 544,2**	**109,5**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**14 173,8**	**16 036,9**	**104,0**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**12 479,5**	**15 087,5**	**115,1**
sanoat	8 260,7	9 453,1	108,6
qurilish	4 218,8	5 634,8	127,6
xizmatlar	**21 632,6**	**25 419,4**	**110,0**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7 691,0	9 200,0	113,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 211,1	4 032,4	118,1
boshqa xizmat tarmoqlari	10 730,5	12 187,0	105,3

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 759,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 7,8 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi


(jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	*2026- yil*
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,3	98,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**29,4**	**28,4**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**25,8**	**26,7**
sanoat	17,1	16,7
qurilish	8,7	10,0
xizmatlar	**44,8**	**44,9**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	15,9	16,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,7	7,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22,2	21,5

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,4 % ni, sanoat tarmog‘i 16,7 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 44,9 % ni tashkil qildi.


Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*



YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,1 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 1,4 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.), qurilish tarmog‘i – 2,4 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 4,5 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 28,4 %), sanoatda – 108,6 % (16,7 %), qurilishda – 127,6 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 110,0 % ni (44,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 113,2 % (16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,1 % (7,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,3 % dan (21,5 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 106,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -108,8 %, xizmatlarda – 106,8 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

	2025- y.	2026- y.
YAHM	113,3 %	106,9 %
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	110,7 %	108,8 %
Sanoat	105,7 %	105,3 %
Qurilish	109,6 %	104,7 %
Xizmatlar	130,8 %	106,8 %

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 40 609,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida – 35 646,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 71,8 % ni (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida -73,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)



	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2025- yil	35 646,5	73,8 %
2026- yil	40 609,2	71,8 %

